

UZINFOCOM

# «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MChJ faoliyatining **asosiy yo’nalishlari**

# «Uzinfocom» Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi tashkil etilishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi PF-3080-sonli «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoniga va Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli Qaroriga muvofiq «Uzinfocom» Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi tashkil etilgan.

**«Uzinfocom» Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazining 2002 yil 30 iyulda tasdiqlangan Ustaviga muvofiq Markazning vazifalari etib quyidagilar belgilangan:**

- O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining buyurtmasiga asosan AKT sohasida dasturlar va meyoriy-huquqiy xujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;
- Real iqtisodiyot, boshqaruv va ijtimoiy sohaning tegishli sohalari uchun, shuningdek, elektron kommertsiya dasturini amalga oshirish uchun dasturiy vositalar, axborot ma'lumotlari bazalari, veb-saytlar va boshqa dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha tenderlarda ishtirok etish;
- Kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy qilish masalalari bo'yicha axborot, servis va konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- AKTning dunyodagi va O'zbekistondagi rivojlanish tendentsiyalari, bu sohadagi zamonaviy xalqaro standartlar haqida har chorakda ma'ruzalar va tahlillar tayyorlash;
- Ilmiy-tadqiqot, ta'lim va trening faoliyatini amalga oshirish, AKT sohasida oliy malakaga ega mutaxassislarni shakllantirishda, mutaxassislar malakasini oshirishda ko'maklashish.

# Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJning asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3245-son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining "Uzinfokom" Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi negizida “Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator” tashkil etilgan.

## Mazkur Qarorga muvofiq quyidagilar «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJning asosiy vazifalari etib belgilangan:

- "Elektron hukumat" tizimida axborot tizimlari, resurslari va dasturiy mahsulotlarni hamda iqtisodiyot tarmoqlarida axborot texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va integratsiyalashni, apparat-dasturiy komplekslarni o'rnatishni, shuningdek, tegishli loyiha va texnik hujjatlarni tayyorlashni ta'minlash; aholiga va tadbirkorlik sub'ektlariga elektron davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- "Elektron hukumat" tizimi loyihalarini amalga oshirishga hamda iqtisodiyot tarmoqlarida axborot texnologiyalarini joriy etishga mamlakat korxonalari va tashkilotlarini tizimli jalb etish hisobiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarining mahalliy bozorini rivojlantirishga ko'maklashish:



## «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJning asosiy vazifalari

- "Elektron hukumat" tizimi infratuzilmasining, davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va tashkilotlarining axborot tizimlari, resurslari va dasturiy mahsulotlarining texnologik xavfsizligini ta'minlash choralarini amalga oshirish
- Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'rtasida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Loyiha boshqaruvining yagona milliy axborot tizimi faoliyati doirasida axborot tizimlarini hamda idoralararo elektron hamkorlik va axborot ayirboshlash tarmoqlarini joriy etish
- Xalqaro standartlarga muvofiq, yuqori texnologiyali xizmatlar va mahsulotlar turini kengaytirish hisobiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlar mahalliy bozorining eksport salohiyatini oshirishga ko'maklashish.



## Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJning bugungi kundagi faoliyati

«Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJ (keyingi o’rinlarda – «Yagona integrator Uzinfocom» МЧЖ) 19 yillik faoliyati davomida davlat boshqaruvini raqamlashtirish va tijorat sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda ulkan tajribaga ega bo’ldi va respublika miqyosida salmoqli axborot loyihalarini amalga oshirdi.

«Yagona integrator Uzinfocom» МЧЖ davlat xaridlarining yagona etkazib beruvchilari reestrida (http://xarid.uz) ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3245-son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq davlat organlari va boshqa tashkilotlarga tender (tanlov) savdolari o’tkazmasdan loyiha va texnik hujjatlarni tayyorlash, axborot tizimlari, resurslari va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish bo’yicha «Yagona integrator Uzinfocom» МЧЖ bilan shartnomalar tuzish huquqi berilgan.

«Yagona integrator Uzinfocom» МЧЖ axborot tizimlarini ishlab chiqishning to'liq tsiklini taklif qiladi. «Yagona integrator Uzinfocom» МЧЖ dasturiy maxsulotlarni yaratish soxasidagi xizmatlari axborot tizimlari, resurslari va dasturiy mahsulotlarning hayotiy tsiklining barcha bosqichlarini, shu jumladan texnik infratuzilmani yaratish va saqlashni o'z ichiga qamrab oladi.

## «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJ tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlar

- Dizayn va texnik hujjatlarni ishlab chiqish
- Reinjiniring va biznes -jarayonlarni modellashtirish (BPR, BPMN)
- Dasturiy ta'minotni, shu jumladan mobil ilovalarni ishlab chiqish
- Interfeys dizayni, logotip dizayni, taqdimot videosi va animatsiya
- Axborot tizimi integratsiyasi
- 24/7/365 tartibini texnik qo'llab-quvvatlash
- Call-markaz xizmatlari
- Axborot tizimlarini takomillashtirish va modernizatsiya qilish

## «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yagona integrator Uzinfocom» MCHJ tomonidan amalga oshirilgan loyihalar

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti - davlat rahbari faoliyatini yorituvchi axborot manbasi. Saytda Prezident ishtirokidagi tadbirlar, yangiliklar, tashriflar, sayohatlar haqida, Prezident tomonidan qabul qilingan hujjatlar va uning faoliyati haqidagi boshqa ma'lumotlar e'lon qilinadi.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual Qabulxonasi

PREZIDENTGA MUROJAAT

Yaratilgan axborot tizimi fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va bevosita vakolatli davlat tashkilotlariga murojaatlarni qabul qilishini ta'minlaydi. Axborot tizimi 2016 yilda ishga tushirilgan.

Xozirgi kunga qadar 5,3 mln.dan ortiq murojaatlar ko’rib chiqilgan.



## «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yagona integrator Uzinfocom» MCHJ tomonidan amalga oshirilgan loyihalar

### O'zbekiston Respublikasi Gov.uz Hukumat portali

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI GOV.UZ
HUKUMAT PORTALI

Ushbu portalning asosiy maqsadi aholi va Respublika hamda xalqaro hamjamiyatning O'zbekiston Respublikasi hukumati faoliyati, Respublikaning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida xabardorligini ta'minlash, axborot resurslarini yaratish va joylashtirishdir.

«Yagona integrator Uzinfocom» MCHJ O'zbekiston Respublikasi Gov.uz Hukumat portali, 1200 davlat organlari va tashkilotlarining veb-saytlari tunu-kun davomida faoliyat yuritishini ta’minlaydi.



# «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yagona integrator Uzinfocom» MCHJ tomonidan amalga oshirilgan loyihalar

my.gov.uz

## Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali davlat organlari ko'rsatadigan elektron davlat xizmatlaridan foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

- 261 electron hizmatlari mavjud;
- Barcha O’zbekiston fuqarolari ishlatishga qodir;
- Idoralararo munosabatlarni aksariyatini avtomatik tarzda o’tkazadi;
- 30 million ariza ko’rib chiqildi;
- 40 000 kunlik arizalarning o’rtacha soni;
- 50 dan ortiq integratsiyalashgan axborot tizimlari;
- 500 000 dan ortiq faol foydalanuvchilar;
- Portalning My.gov.uz mobil ilovasi mavjud;
- 2020 yilda Yagona portal uchun aloqa markazi ishga tushdi;



# «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJ tomonidan amalga oshirilgan loyihalar



## O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining coronavirus.uz, kasal.uz, askdoctor.uz axborot tizimlari

Ushbu axborot tizimlari Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va ishga tushirilgan. Portalda fuqarolar uchun raqamli xizmatlar va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, karantin paytida vaqtni samarali o'tkazish uchun (oziq-ovqat etkazib berish, tibbiy va farmatsevtika xizmatlari, o'yin-kulgi va hordiq chiqarish xizmatlari, o'qitish va o'zini rivojlantirish) xizmatlar mavjud.

## Ziyonet ta'lim portali

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПОРТАЛ ZiyoNET

Axborot-ta'lim resurslarini shakllantirish va birlashtirish uchun platforma.

## Davlat Fuqarolik xizmatining Yagona elektron axborot portali

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИНИНГ ЯГОНА ЭЛЕКТРОН АХБОРОТ ПОРТАЛИ

Axborot tizimi davlat organlarining inson kapitalini boshqarish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

# «Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator Uzinfocom» MCHJ tomonidan amalga oshirilgan loyihalar



## O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining coronavirus.uz, kasal.uz, askdoctor.uz axborot tizimlari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Ushbu axborot tizimlari Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va ishga tushirilgan. Portalda fuqarolar uchun raqamli xizmatlar va xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar, karantin paytida vaqtni samarali o'tkazish uchun (oziq-ovqat etkazib berish, tibbiy va farmatsevtika xizmatlari, o'yin-kulgi va hordiq chiqarish xizmatlari, o'qitish va o'zini rivojlantirish) xizmatlar mavjud.

## Ziyonet ta'lim portali

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПОРТАЛ ZiyoNET

Axborot-ta'lim resurslarini shakllantirish va birlashtirish uchun platforma.

## Davlat Fuqarolik xizmatining Yagona elektron axborot portali

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИНИНГ ЯГОНА ЭЛЕКТРОН АХБОРОТ ПОРТАЛИ

Axborot tizimi davlat organlarining inson kapitalini boshqarish va rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT